

# Argus: 2035-yilga borib Yevropa Ittifoqida poliolefin ishlab chiqaruvchilar quvvatlardan foydalanish darajasini 81 foizga yetkazadi

// 14.07.2026

<https://uzkimiyosanoat.uz/oz/press/news/argus-2035-yilga-borib-yevropa-ittifoqida-poliolefin-ishlab->



Argus tahlillariga ko'ra, 2035-yilga kelib Yevropa Ittifoqidagi poliolefin ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi hozirgi 72 foizdan 81 foizgacha oshadi. Shu bilan birga, mintaqadagi bozor hajmi yillik o'rtacha 1 foiz o'sish sur'ati bilan 28,5 million tonnaga yetishi kutilmoqda.

2025-yilda Yevropa poliolefin bozori 2 foizga o'sib, 25,7 million tonnani tashkil etdi. Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi taxminan 72 foiz bo'lgani sababli bozordagi taqchillik 6,3 million tonnaga yetdi.

Shu bilan birga, Shimoliy Amerika eksportchilari Yevropa bozoridagi mavqeini yanada mustahkamlab, Yevropa importidagi ulushini 36 foizgacha oshirdi.

Biroq hisobotda qayd etilishicha, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi tiklanishiga qaramay, Yevropa poliolefin bozoridagi taqchillik o'sishda davom etadi va 2035-yilga kelib yiliga 6,5 million tonnaga yetishi prognoz qilinmoqda.

Xitoyda esa 2025-yil darajasiga nisbatan poliolefin ishlab chiqarish quvvatlari 40 foizga oshishi kutilmoqda. Shunga qaramay, mamlakatda poliolefin taqchilligi 14 million tonna darajasida saqlanib qolishi prognoz qilingan.